

**«PEDAGOGIKA PSIXOLOGIYa»
fanlaridan
DASTUR**

Tuzuvchilar: f.f.n.,dots. M. Primov.,
kat. o'qituvchilar: G. Avalova, Q. Sultonov,
o'qituvchilar: N. Xoliygitova, A. Xurramov.

Taqrizchilar: p.f.d.,prof. M.Kuranov,
p.f.n., dots. F.Babashev,
p.f.n., dots. F.Haydarov.

Ushbu «Pedagogika. Psixologiya» fanlari bo'yicha o'quv dasturida ta'lim - tarbiya jarayonlari qonuniyatlari, zamonaviy o'qitish usullari, rivojlangan ta'lim tizimlari va O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimining xususiyatlari hamda psixologiyaning predmeti, psixologiya tarixi, bilish jarayonlarining psixologik xususiyatlari, muloqot, guruhlardagi psixologik xususiyatlar, mustaqil fikrlash omillari qamrab olingan.

В этой программе по предметам «Педагогика. Психология» определены основные направления педагогики и психологии в воспитании, образовании, во всех сферах жизни, освещены жизненные вопросы воспитания и образования зрелой личности, раскрыты принципы воспитания, образования, современные методы образования, развитые системы образования и своеобразие образования Республики Узбекистан, а также предоставлены важные теоретические и практические знания основам психологии и их регулирования. Особенно уделено внимание на познание себя и других, как вести себя в разных ситуациях и коллективе в обществе, мыслить свободно в разных психологических ситуациях.

The main directions of Pedagogics and Psychology concerning upbringing and education in all the sphere of life are defined in this programme on the subjects « Pedagogics. Psychology».

Vital questions of upbringing and educaion of a person at a mature age, the principles of upbringing and education, up - to - date methods of education, developed sistems of education and the peculiarity of education of the Republic of Uzbekistan are elucidated in it.

Some important theoretical and practical knowledge of the foundations of Psychology and their regulations are laid down and presented in the programme.

Particular attention is paid to knowing oneself and other people, to the manners of conducting oneself in a concrete collective body and society, the ways of thinking with case in varions psychological situations.

Dastur Toshkent Moliya instituti Ilmiy Kengashida muhokama qilingan va nashrga tavsiya qilingan (25 aprel 2003 yil 9 - sonli bayonnoma)

1. SO'Z BOSHI

Ushbu fanlarni o'qitishning maqsad va vazifalari, boshqa fanlar bilan o'zaro bog'liqligi

«Pedagogika. Psixologiya» fanlarining maqsadi iqtisodchi - bakalavrlarga ta'lim - tarbiya jarayonlari, individual va guruhlar xulq - atvori qonuniyatlari to'g'risida bilim berishdir.

«Pedagogika. Psixologiya» fanlarining vazifasi iqtisodchi bakalavrlarda iqtisodiy xulq - atvor shakllanishiga ta'sir etuvchi pedagogik - psixologik omillar, qonuniyatlardan samarali foydalanish ko'nikmalarini hosil qilishdir.

«Pedagogika. Psixologiya» fanlarini o'rganishda talabalar O'zbekiston tarixi, falsafa, iqtisodiy nazariya, ma'naviyat asoslari fanlarini chuqur o'zlashtirgan bo'lishi lozim.

O'quv fanlari bo'yicha bilim, ko'nikma va mahoratlarga talablar

Iqtisodchi bakalavrlar «Pedagogika. Psixologiya» fanlaridan quyidagi sohalar bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lishi lozim:

- - pedagogika va psixologiya fanlarining predmeti, maqsadi va vazifalari to'g'risida;
- - pedagogika va psixologiya fanlarining rivojlanish tarixi to'g'risida;
- - milliy ta'lim - tarbiya tizimi va milliy psixologik xususiyatlar to'g'risida;
- - ta'lim, tarbiya, o'qitish, o'rganish, o'z - o'zini tarbiyalash, mustaqil o'rganish tamoyillari, qonuniyatlari va ularni shallantirishning amaliy ko'nikmalari to'g'risida;
- - faoliyat, motivlar, individual xulq - atvor, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, diqqat, iroda, hissiyotlar, temperament, qobiliyatlar, muomala, guruhlar xulq - atvori, tadbirkorlik xulq - atvori tamoyillari, qonuniyatlari va ularni shakllantirish, takomillashtira olish to'g'risida;
- - pedagogik va psixologik tashhis testlarini faoliyat sohalarida qo'llashni bilishilari lozim.

2. FAN DASTURI

I QISM

(Pedagogika)

Pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Pedagogika fanining paydo bo'lishi. Pedagogika ta'lim - tarbiya haqidagi fan. Jamiyatning tarixiy taraqqiyoti davomida pedagogikaning o'rni va rolining ortib borishi. O'zbekistonda erkin demokratik, fuqarolik jamiyatni shakllantirishda pedagogika fanining ahamiyati.

Pedagogikaning ijtimoiy fanlar tizimidagi o'rni va uning ularga nisbatan bo'lgan munosabatining o'ziga xosligi. Pedagogikaning ilmiy, nazariy, amaliy va kelajakni belgilash funksiyalari. qsh avlodni tarbiyasi hamda ta'lim muammosini ishlab chiqishda pedagogikaning ahamiyati.

Pedagogikaning asosiy kategoriyalari: tarbiya, ta'lim, ma'lumot, o'qitish, o'zini o'zi tarbiyalash, mustaqil o'qish.

Ta'lim - bilim, ko'nikma, malaka, dunyoqarash, fikr va e'tiqodlarni shakllantirish ekanligi.

Tarbiya - inson kamolotining mahsulidir.

Ma'lumot - ta'lim - tarbiya in'ikosidir.

O'zbekiston Respublikasi mustaqilligini mustahkamlash sharoitida pedagogik ilmiy - tadqiqotlarning ahamiyati, ularning vazifasi, yo'nalishlari. Pedagogik tadqiqotlarning turlari: asosiy, nazariy, amaliy.

Pedagogikaning ilmiy - tadqiqot metodlari, tavsifi va turlari. Nazariy tadqiqot uslublari: qiyosiy, tarixiy tahlil qilish, va loyixalashtirish, empirik usullari, ilmiy pedagogik kuzatish va uning turlari.

Milliy pedagogikaning rivojlanish tarixi va uning asosiy vazifalari

O'zbekiston Respublikasi taraqqiyotida pedagogika fani rivojlanishining asosiy vazifalari va tendentsiyalari.

«Milliy pedagogika» tushunchasining ta'rifi, mohiyati, asoslari.

Pedagogika fani taraqqiyotining asosiy bosqichlari. Eng qadimgi yozma ma'rifiy yodgorliklar va turkiy xalqlar axloq - odob tizimining o'ziga xos an'anaviy xususiyatlari.

Islom ma'rifiy tsivilizatsiyasining ta'lim - tarbiyaga ta'siri. Hadis ilmi rivojida Imom Ismoil al - Buxoriy va Imom at - Termiziyning xizmatlari. So'fiylik ta'limotida etuk inson muammosining talqin etilishi.

Sharq Uyg'onish davrida maktab, tarbiya va pedagogik fikrlar taraqqiyoti.
Buyuk mutafakkirlar ta'lim - tarbiya haqida.

Temur va Temuriylar davrida tarbiya, maktab va pedagogik fikr taraqqiyoti.

Turkistonda chorizm maktab siyosatining boshlanishi. Rus - tuzem maktablari va matbuot. Jadidchilik ma'rifati va ta'lim - tarbiya.

«Mustamlakachilik va qaramlik sharoitidagi» ta'lim - tarbiya yo'nalishlari va undagi kamchiliklar.

Mustaqil O'zbekistonda milliy ta'limni tashkil etish muammolari.

Jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi

Jahon pedagogika fanining taraqqiyot bosqichlari. Qadimgi Yunoniston va Rim davlatlarida ta'lim - tarbiya, pedagogik qarashlar. Qadimgi Xitoyda ta'lim - tarbiya. Konfutsiy.

G'arbiy Evropada maktab, maorif, hamda pedagogik fikrlar taraqqiyoti.

Jahon pedagogika fani rivojlanishiga hissa qo'shgan buyuk pedagoglarning ijtimoiy pedagogik faoliyatlari va pedagogik qarashlari.

Ta'lim jarayonining mohiyati va ta'lim nazariyasi

Didaktika haqida tushuncha. Didaktikaning predmeti va asosiy vazifalari.

Didaktikaning asosiy kategoriyalari.

Ta'lim mazmuni haqida tushuncha. Ta'lim mazmunini belgilovchi ob'ektiv va sub'ektiv omillar. Ta'limning ikki tomonlama jarayon ekanligi, ta'lim jarayonining asosiy tarkibiy elementlari, maqsadlari, vazifalari, uslublari.

Ta'lim - bilish faoliyatida voqelikni bilishning maxsus shakli ekanligi. Mustaqillikni mustahkamlash ta'limning mohiyat - mazmuni ekanligi.

Ta'lim mazmunini boyitish yo'llari: yangi o'quv pedagogik texnologiyalar, yangi pedagogik kontseptsiyalar, yangi pedagogik testlar. O'quv rejalari, dasturlari va darsliklarni muntazam takomillashtirish va ulardagi muqobillik holatini ko'paytirib borish.

Ta'lim qonuniyatlari va qoidalari O'qitish metodlari va muammoli ta'lim

Ta'lim qonuniyatlari: ta'limning jamiyat ehtiyojlariga bog'liqligi, ta'limda ma'lumot berish.

Ta'lim jarayonini harakatga keltiruvchi omillar. Ta'lim olish va ta'limning mazmuni o'rtasidagi dialektik bog'liqlik. Ta'limning tarbiyalovchilik xususiyatlari.

Ta'lim qoidalari haqida tushuncha. Ta'limning ilmiyligi. Ta'limda uzviylik va izchillik. Ta'limning tushunarligi, hayot bilan bog'liqligi. Ta'limda onglilik va faollik. Ta'limning tarbiyalovchilik imkoniyatlaridan foydalanish. Ta'limning ko'rsatmali bo'lishi. *Ta'limni va ta'lim tizimini demokratiyalashtirish va insonparvarlashtirish*. Ta'limda shaxsiy xususiyatlarni hisobga olish.

O'qitish metodlari va usullari to'g'risida tushuncha.

O'qitish metodlarini amalga oshirish uchun qo'yiladigan muayyan talablar.

Metod strukturasi kiruvchi o'qitish usullarining turlari.

O'qitish metodlarining tasnifi. O'qitishning oqzaki metodi. O'tilgan materiallar ustida ishlash va yangi materiallarni o'rganishga tayyorlanish. O'qitishning induktiv va deduktiv metodlari. *O'qitishning amaliy metodlari*.

Ta'lim - tarbiyaning zamonaviy tashkiliy shakllari

O'qitishni tashkil etish shakllari haqida tushuncha va uni tashkil etish shakllarining qisqacha tarixiy sharhi. Frontal, guruh va yakka tartibda o'qitish. O'qitish sistemalari. Darsni tashkil etishning maqsadi, mazmuni, dars samaradorligini oshirish yo'llari. Ma'ruza, suhbat, praktikum, seminar, fakultativ, konferentsiya, mustaqil ta'lim, mustaqil ish va ularni ta'lim jarayonida tashkil etishning roli.

Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning tashkiliy shakllari, o'qitishni tahlil etish barcha shakllarining birligi va o'zaro aloqadorligi.

O'qitish metodlari haqida tushuncha. O'qitish metodi, usul va vositalari. O'qitish metodlarini amalga oshirish shakllarining xilma - xilligi. O'qitish metodlarining tasnifi va ularning tahlili. Ta'limni rag'batlantirish metodi. Mustaqil ishning rolini kuchaytirish, mustaqil ishlar turlari va o'qitish vositalari. O'qitishning nazariy va o'z - o'zini nazorat mezonlari. *Turli o'quv shakllarida o'qitish mezonlarini takomillashtirish*. Har xil yo'nalishdagi o'quv yurtlarida o'qitish metodlarini ta'minlash xususiyatlari.

Tarbiya jarayonining mohiyati va vazifalari

Tarbiya jarayonining ta'rifi. Tarbiyaning psixologik asoslari. Tarbiya. O'z - o'zini tarbiyalash, qayta tarbiyalash. Tarbiya jarayoni va tarbiyaviy ish. Oila maktab va turli muassasalardagi umumiy va maxsus tarbiya. Ta'lim bilan tarbiya jarayonining bir butunligi. Tarbiyaning ta'lim jarayonida farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari. *Tarbiya predmeti sifatida munosabatlarning mohiyati*. Munosabatlarni shakllantirish sharoitida tarbiyaning umumiy qonuniyatlariga amal qilishi.

Tarbiyaning umumiy usullari va qoidalari

Tarbiya metodi haqida tushuncha. Tarbiya vositalari. Tarbiya vositalari va metodlarining o'zaro munosabatlari. Tarbiya metodlarining tasnifiga turlicha yondoshish. Ishontirish tarbiyaning muhim metodi ekanligi. Ijobiy namuna metodi va uning turlari. Tarbiyada mashq metodi. Rag'batlantirish va ilxomlantirish metodlari haqida. Tarbiya metodlarini optimal tanlash va samarali qo'llash shartlari. *Tarbiya metodlarini takomillashtirish.*

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimi va uning asosiy qonunlari

Xalq ta'lim tizimi. O'zbekistonda halq ta'limining tashkil topishi. Halq ta'lim tizimini isloh qilish. Halq ta'lim tizimining bosqichlari. O'zbekiston halq ta'lim tizimiga tasnif. Halq ta'lim tizimidagi ta'lim - tarbiya muassasalariga tasnif. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yo'nalishlari. Dastur va uning tarmoqlari. Dastur va uning tarmoqlari. *Halq ta'limi tizimi qurilishining qoidalari.*

II QISM

(Psixologiya)

Psixologiya fanining dolzarb vazifalari, predmeti. Yangicha tafakkur va milliy mafkura shakllanishi sharoitida psixologik bilimlarning tutgan o'рни

Yangi davr va psixologiya. Inson omili. Psixologiyaning predmeti. Psixika. Psixikaning namoyon bo'lish shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi. Psixologiyaning fanlar tizimida tutgan o'рни. Tabiiy fanlar: biologiya, fiziologiya, ximiya, fizika va b.q. bog'liqligi. Kibernetika fani sohasi. Texnika fanlari bilan aloqasi. Iqtisodiyot bilan aloqasi. *Psixologiyaning tarmoqlari.*

Psixologiyaning zamonaviy metodlari va ularni amaliyotga tatbiq etish.

Psixologiyaning bozor munosabatlari sharoitidagi imkoniyatlari

Psixologiyaning asosiy metodlari. Kuzatish metodi. So'roq metodi. Testlar metodi. Eksperiment. Modellashtirish. Psixologiyaning tadbqiqiy va amaliy sohalari. Amaliy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari. Sanoat va ishlab chiqarish sohasi. Siyosat sohasidagi psixologiya. Oila va nikoh borasidagi tadbqiqiy ishlar. Maorif sohasidagi amaliy ishlar. Huquqbuzarlikning oldini olish. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitlarida psixologik bilimlarning ahamiyati. Psixologiyaning tadbqiqiy yo'nalishlari. *Psixologik testlar va ularning imkoniyatlari.*

Shaxsning faolligi. Faoliyat turlari, motivatsiyasi va ularni boshqarish. Ijtimoiy hulq motivatsiyasi.

Anglangan va anglanmagan motivlar

Shaxs va uning faolligi. Tashqi faollik. Ichki faollik. Jismoniy va aqliy xarakterlar. Malaka. Ko'nikmalar. Faoliyat turlari: muloqot, o'yin, o'qish, mehnat. Ijtimoiy xulq motivlari va shaxs motivatsiyasi. Motivlarning turlari. Motivlarning anglanganlik darajasi: ijtimoiy ustanovka va uni o'zgartirish muammosi. Inson faoliyatining o'ziga xosligi. Professional malaka va ko'nikmalarning shakllanishi. *Motivatsion nazariyalar va ularning qisqacha ta'rifi.* Muvaffaqiyatga erishish motivlarini shaxsda o'rganish.

Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi. Bilish mezonlari va uning adekvatligi.

Idrok, xotira va diqqat jarayonlarini boshqarish

Bilish jarayonlari va professional faoliyat: idrok, sezgilar, xotira, diqqat, tafakkur, iroda va hissiyotlar. Idrok va idrok qilish qonunlari. Figura va fonning ilgariligi harakatga bog'liqligi qonuni. Idrokning konstantligi qonuni. Kutishlar va tahminlarning idrokka ta'siri. O'zgarmas ma'lumotning idrok qilinmasligi qonuni. Anglanganlik qonuni. Tahminlarni tekshirish jarayonida idrok qilish. Xotira va shaxs tajribasining boyligi. Idrokning inson xatti - xarakatlari bilan aloqasi. Idrok obrazlarining shakllanishiga olib keluvchi omillar. Idrokning anglanganligi. Idrok va tafakkur. Xotiradagi individual farqlar. *Psixologiyadagi xotira nazariyalari. Xotirani o'stiruvchi psixologik omillar*

Shaxsning individual xususiyatlari va ularni diagnostika qilish. Xarakter,

temperament va

qobiliyatlarni bilishning ahamiyati

Individual - tipologik xususiyatlar klassifikatsiyasi: qobiliyatlar, temperament, xarakter, irodaviy sifatlar, emotsiyalar va motivatsiya. Shaxs iqtidori va qobiliyatlar diagnostikasi. Qobiliyatlardagi tug'ma va orttirilgan sifatlar. Layoqat, iqtidor, ist'edod. Qobiliyatlarning psixologik strukturasi. *Qobiliyatlar va qiziqishlar diagnostikasi*. Temperament va faoliyatning individual xususiyatlari.

Hozirgi zamon psixologiyasidagi asosiy yo'nalishlar

O'zbekiston Respublikasining suveren, demokratik taraqqiyot yo'lini tanlanganligi natijasida chet el psixologiyasi nazariy va amaliy maktablaridagi g'oyalarga nisbatan munosabatning o'zgarishi.

Funksional psixologiya nazariy qarashlarning umumiy mazmuni. Funksional psixologiya vujudga kelishining ijtimoiy va nazariy asoslari. Bixeviorizm oqimi vujudga kelishidagi asosiy ehtiyojlar. Bixeviorizm oqimining ong tushunchasi va introspektsiya usuliga qarshi chiqishi, uning o'rniga hulq - atvor tushunchasini ilgari surishi. Geshtalt psixologiya oqimi to'g'risida umumiy tushuncha. Geshtalt psixologiyada idrok jarayonlarida konstantlik (doimiylik), tarkibiy tuzilishga egalik, predmet obrazining uni o'rab turgan atrof - muhit bilan bog'liqlik qonunlarini kashf etilishi. Geshtalt psixologiya oqimi asosiy vakillari M.Vertxeymer, V.Kyoler, Xoffko va «Fi - fenomen» maktabining qarashlaridagi nazariy g'oyalar. Freydzizm oqimining mohiyati. Inson ongidan siqib chiqarilgan affektlarning xulq - atvorga ta'sirini o'rganilishi. *Gumanizm psixologiyasida insonlarga «ochiq imkoniyatlarga ega va o'z*

- o'zini takomilga etkaza oluvchi , noyob tizim» sifatida qaralishligi. Gumanizm psixologiyasi vakillari G.Olport, A.Maslou, K.Rodjers qarashlarining mazmuni. K.Yung ongsizlik tabiati to'g'risida.

Guruhlarda ijtimoiy faoliyatni tashkil etish.

Guruhlarning turlari. Guruh o'zaro moslik, liderlik va konformizm xodisalari

Shaxs va guruh. Guruhlarning turlari. Referent guruh. Normativ guruh. Qiyoslash guruhlari. Negativ guruhlar. Guruh o'lchamlari va uning tizimi. Jamoalarda psixologik o'zaro moslik. Gruppaviy qarorlar qabul qilishda o'zaro ta'sir masalasi. Guruhdagi psixologik muhit va uni o'rganish. Gruppaviy faoliyatning samaradorligi. Jamoalarda ro'y beradigan psixologik hodisalar. Jamoaning shaxsga ijobiy va salbiy ta'siri. Jamoalarni boshqarishning samarali usullari. Mehnat jamoalarining konkret shaxsga ijobiy ta'siri. *Jamoaning ma'naviy muxitini shakllantirish omillari.*

Tadbirkorlik va biznes psixologiyasi asoslari

Tadbirkorlik va biznes faoliyati psixologiyasi haqida. Tadbirkorlik va biznes faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy psixologik omillari: ijtimoiy - iqtisodiy, hududiy, siyosiy va psixologik.

Tadbirkorlik faoliyatida shaxs psixologiyasi. Layoqat, iste'dod va qobiliyatlar. Muomala psixologiyasi va tadbirkorlik faoliyati. Tadbirkorlik faoliyatida nizolar va ularning oldini olishning psixologik yo'llari. *Tadbirkorlik qobiliyatini rivojlantirish.*

Tadbirkorlik va tashabbuskorlik. Tadbirkorlik va biznes faoliyatida reklama va marketingning o'rni. Tadbirkorlik va biznes shaxsning ma'naviy qiyofasi. Tadbirkorlik va biznes faoliyatini boshqarish.

Oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasi

Oilaning ijtimoiy va etnopsixologik xususiyatlari. Oilaning shaxsni shakllanishidagi roli. Oilaning ijtimoiy tarixiy kelib chiqishi. Oilaviy hayotda bo'ladigan o'zgarishlar, muammolar, qonuniyatlar. Oilaviy hayotning o'ziga xos xususiyatlari. Oila muloqoti. Oilani rejalashtirish. Oilaning asosiy funksiyalari. Nikohga etuklik xususiyatlari. Nikoh yoshi xususiyatlari. *Oilaviy nizolar*. Ota - onalarning obro'si va shaxsiy namunalari tarbiya samaradorligini oshiruvchi omil sifatida. Oilaviy tarbiyani takomillashtirish vazifalari.

3. SEMINAR MASHG'ULOTLARI MAVZULARI

I QISM

(Pedagogika)

Pedagogika fanining predmeti, maqsadi va vazifalari

Ijtimoiy va oila tarbiyasining birligi.* Tarbiyaviy ishni ta'sirchanligini oshirishda muhim omil.

Oila va jamoatchilikning tarbiyaviy faoliyatini tashkil etish va takomillashtirish. Tarbiyada oila, maktab, jamoatchilik hamkorligi.

Oila va maktab tarbiyasining maqsadi va mazmunining birligi. Ota - onalarni pedagogik bilimlar bilan qurollantirish. Ota - onalarni o'quv maskanlaridagi tarbiyaviy ishlariga jalb etish.

Milliy pedagogikaning rivojlanish tarixi va uning asosiy vazifalari

«Milliy pedagogika», «Avesto», «Alpomish», «Manas» dostonlarida tarbiya masalalari.* Islomda ta'lim - tarbiya. Hadis ilmida ta'lim - tarbiya. Sufiylik ta'limoti. Markaziy Osiyoda XIV - XV asrlarda maktab, ta'lim - tarbiya.

Amir Temur, Mirzo Ulug'bek, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Boburlarning ta'lim - tarbiya haqida fikrlari. Buxoro, Xiva va Qo'qon xonliklarida ta'lim - tarbiya, maktab, Fan va madaniyat. Rus - tuzem maktablari va matbuot. Turkistonda jadidchilik harakati va ta'lim - tarbiya. Qaramlik va mustamlakachilik yillarida ta'lim - tarbiyadagi yo'l qo'yilgan kamchiliklar.

Jahon pedagogika fanining rivojlanish tarixi

Qadimgi Yunoniston va Rimda ta'lim - tarbiya, maktab.

Aristotel, Suqrot, Platon, Kvintilianlarning pedagogik g'oyalari.

Qadimgi Xitoyda ta'lim - tarbiya. Konfutsiy ta'lim - tarbiya haqida.

Evropa mutafakkirlari ta'lim - tarbiya haqida.* Jan Jak Russo, K.D.Ushinskiy, I. G. Pestalotstsining ta'lim - tarbiya to'g'risidagi g'oyalari.

Didaktikaning fan sifatidagi taraqqiyoti **Ta'lim qonuniyatlari va o'qitish metodlari**

Ta'lim mazmuni. Ta'lim mazmunini belgilovchi omillar.* Hozirgi davrda ta'lim mazmuniga qo'yiladigan talablar.

Ta'lim qonuniyatlari, ta'limning tamoyillari. O'quv maqsadlarini nazorat topshiriqlariga ko'chirish.* Oliy o'quv yurtlaridagi o'qitish metodlari haqida. O'qitishning vositalari (darslik va o'quv qo'llanmalari). Muammoli vaziyatlarni yaratish.*

Ta'lim - tarbiyaning zamonaviy tashkiliy shakllari

Ta'lim va tarbiya metodlarining aloqasi. Ta'lim - tarbiya metodlarining samaradorligini oshirish yo'llari. Ta'lim va tarbiya jarayonini jadallashtirishning mohiyati.*

Tarbiya jarayonining mohiyati va tarbiyaning umumiy shakllari, usullari va qoidalari

Tarbiya jarayoni va tarbiyaviy ish.* Tarbiya va ta'lim jarayonining bir butunligi. Tarbiya shakllari.* Tarbiya metodlarining xilma - xilligi. Tarbiya metodlarini takomillashtirish.

Ta'lim - tarbiyada ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va qo'llash

Ilg'or pedagogik tajribalarni zaruriyati va sharoitiga ko'ra tanlash.* Ilg'or pedagogik tajribalarni o'rganish va qo'llashni tashkil etish tamoyillari. Ta'lim va tarbiyada joriy va ilg'or pedagogik tajribalarni bir - biri bilan to'ldirish muammolari.

O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi – tizimi va uning asosiy qonunlari

O'zbekistonda xalq ta'limining tashkil topishi. Xalq ta'lim tizimini isloh qilish. Ta'lim tizimining bosqichlari. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish yo'nalishlari.* Dastur va uning tarmoqlari. Dasturni amalga oshirishdagi dastlabki qadamlar.

Tarbiyada maktab, oila, jamoatchilik, mahalla hamkorligi va ularning bog'liqligi

Mahalla omilining yoshlar tarbiyasidagi rolini ortib borishi. Maktab, mahalla va oila birligi ifodalangan tarbiyaviy tadbirlar kompleksini ishlash metodikasi.* Sharqona tarbiya va uning umumjahon tarbiya tamoyillari garmoniyasiga uyg'unlashib borishi.

II QISM

(Psixologiya)

Psixologiya fanining dolzarb vazifalari, predmeti.

Yangicha tafakkur va milliy mafkura shakllanishi sharoitida psixologik bilimlarning tutgan o'рни

Psixologiya fanining fanlar tizimida tutgan o'рни. Psixologiya fanining tarmoqlari va ularning vazifalari. Psixologiya rivojlanayotgan fanlar tizimida. Markaziy Osiyo mutafakkirlari ta'limotida psixik qarashlarning o'рни.

Psixologiyaning zamonaviy metodlari va ularni amaliyotga tadbiiq etish. Amaliy psixologiyaning bozor munosabatlari sharoitidagi imkoniyatlari

Psixologiyaning asosiy metodlari: kuzatish, so'roq, test, eksperiment, modellashtirish.

Kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirishda psixologiya fanining mavzulari. Amaliy psixologiyaning asosiy yo'nalishlari.

O'zbekistonda demokratik jamiyat barpo etilishida faol ishtirok etuvchi shaxsning ma'naviy kamolotida psixologiyaning o'рни.

Shaxsning faolligi. Faoliyat turlari, motivatsiyasi va ularni boshqarish. Ijtimoiy hulq motivatsiyasi.

Anglangan va anglanmagan motivlar

Faoliyat haqida umumiy tushuncha. Shaxs faoliyati va uning psixologik tuzilishi. Faoliyat va psixik jarayonlar. Ish - harakatlar inson faoliyatidan biri ekanligi. Tashqi (amaliy) ichki (aqliy) ish - harakatlar. Ko'nikma va malakalar, ularning asosiy turlari. Etakchi faoliyat haqida tushuncha.

Shaxsning ijtimoiy borliqni bilishi. Bilish mezonlari va uning adekvatligi. Idrok, xotira va diqqat jarayonlarini boshqarish

Diqqatning inson hayoti va faoliyatidagi o'рни va xususiyatlari. Ta'lim jarayonlarida diqqatning roli.

Sezgilar va sezgilar to'g'risida nazariyalar. Sezgi turlari. Sezgilarning Ch.Sherington klassifikatsiyasi. Angliyalik nevrolog X. Xedning sezgilar to'g'risidagi genetik klassifikatsiyasi xususiyatlari.

Idrok jarayonlari. Idrokning fiziologik va psixologik xususiyatlari.

Shaxsning individual xususiyatlari va ularni diagnostika qilish. Xarakter, temperament va qobiliyatlarni bilishning ahamiyati

Temperament shaxsning emotsional qo'zg'aluvchanligi va harakatchanligidagi individual xususiyatlar yig'indisi sifatida.

Xarakter to'g'risida tushuncha. Xarakterning faoliyat va muomala jarayonida shakllanishi.

Qobiliyat turlari. Qobiliyatlar shakllanishida senzitiv davrlar.

Hozirgi zamon psixologiyasidagi asosiy yo'nalishlar

Funksional psixologiya vujudga kelishining ijtimoiy va nazariy asoslari. Funksional psixologiyada ongga munosabat masalalari.

Bixeviorizm oqimi vujudga kelishidagi asosiy omillar.

Bixeviorizm oqimida ongga va xulq - atvorga munosabat masalalari.

Geshtalt psixologiya oqimi to'g'risida umumiy tushuncha. Geshtalt psixologiyada predmet va fazo munosabatlarini idrok etish masalalari.

Freydizm oqimining mohiyati. Freydizmda nevrozlar kelib chiqish manbaiga munosabat.

Z.Freyd klassifikatsiyasiga ko'ra ruhiyatning uch xil tuzilishi darajasi. Shaxsning tarkibiy tuzilishi. Gumanizm psixologiyasida inson va inson resurslariga yangicha munosabat.

Guruhlarda ijtimoiy faoliyatni tashkil etish.

Guruhlarning turlari. Guruhiy o'zaro moslik, liderlik va konformizm hodisalari

Shaxslararo munosabatlarning yuzaga kelishi. Shaxs taraqqiyotida odamlar guruhi. Referent guruh. Referent guruhlar turlari: normativ, qiyoslash, negativ. Psixologik moslik mezonlari.

Tadbirkorlik va biznes psixologiyasi asoslari*

Tadbirkorlik va biznes faoliyati psixologiyasi haqida. Tadbirkorlik faoliyatida shaxs psixologiyasi xususiyatlari. Tadbirkorlik faoliyatida muloqot jarayonining ahamiyati. Tadbirkorlik faoliyatida nizolar va ularni oldini olishning psixologik usullari.

Oila va oilaviy munosabatlar psixologiyasi*

Oilada shaxs shakllanishi va rivojlanishi. Oilada shaxslararo munosabat. Oilaviy nizolarni bola ruhiyatiga ta'siri. Nikohga etuklik xususiyatlari. Oila ijtimoiylashuvining asosiy va muhim o'chog'i. Yurtimizda oila davlat ximoyasida.

4. TAVSIYA ETILAYOTGAN MAVZULAR BO'YICHA KO'RGAZMA - NAMOIYISH MATERIALLARI, O'QUV FILMLARI VA BOSHQA DIDAKTIK MATERIALLAR RO'YXATI

Ko'rgazma - namoyish materiallar ro'yxati

- - «Pedagogika. Psixologiya» kursining ilm - fan amaliyot bilan bog'liqligini namoyon qiluvchi sxematik plakat
- - «Pedagogika. Psixologiya» ilmiy tadqiqot usullari ko'rsatilgan plakat.
- - «Pedagogika.Psixologiya» kursidan ta'lim mazmunini tashkil qiluvchi ta'lim tamoyillari ko'rsatilgan ko'rgazmali plakat.

O'quv filmlari ro'yhati (internetdan olinadi)

e - mail: sales @ piter - press.ru

e - mail: piter - t @ lincom.kharko.ua

e - mail:root@ top - book.nsk.su

e - mail:postbook@ piter-pressr.r

- - Aqliy taraqqiyot testi.
- - Raven testi.
- - Burdon jadvali.
- - Kettel testi.
- - Ayzenk so'rovnomasi.
- - K.Yungning xarakter tipini aniqlash metodikasi.
- - Differentsial - diagnostik so'rovnoma.

Didaktik materiallar ro'yhati; multmediya ilovalari.

Ma'ruza matnlari bo'yicha tarqatma materiallar.

Amaliy mashg'ulotlar mavzulari bo'yicha tarqatma materiallar.

5. O'ZLASHIRISHNING NAZORATI

Fanga ajratilgan maksimal ball - 72, bundan joriy baholash(JB) 25,2 oraliq baholashga(OB) 25,2 yakuniy baholashga (YaB) 21, 6 ball ajratilgan. Joriy, oraliq va yakuniy baholashlar talabalar bilimini oqzaki, yozma shakllarda nazorat qilish hamda referatlarni tekshirish usulida o'tkaziladi.

6. ADABIYOTLAR

Asosiy adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 1992.
2. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risidagi qonuni». - T.:1997.
3. O'zbekiston Respublikasining Referendumi to'g'risidagi Qonuni. - T.: 2001.
4. O'zbekiston Respublikasining «Referendum yakunlari hamda davlat hokimiyati tashkil etilishining asosiy printsiplari to'g'risidagi Konstitutsiyaviy qonuni». – T.: 2002.
5. «Ma'naviyat va ma'rifat» jamoatchilik markazi faoliyatini yanada takomillashtirish va samaradorligini oshirish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning 1998 yil, 9 sentyabr Farmoni. // Xalq so'zi, 1998 yil 10 sentyabr.
6. «Ma'naviy va ma'rifiy islohatlarni yanada chuqurlashtirish va uning samaradorligini oshirish chora - tadbirlari to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 24 iyul Qarori. // Xalq so'zi, 1998 yil 25 iyul.
7. Karimov I.A. O'zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T.1. – T.: O'zbekiston, 1996.
8. Karimov I.A. Bizdan ozod va obod Vatan qolsin. T.2. – T.: O'zbekiston, 1996.
9. Karimov I.A. Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir. T.3. – T.: O'zbekiston, 1996.
10. Karimov I. A. Bunyodkorlik yo'lidan. T.4. – T.: O'zbekiston, 1996.
11. Karimov I. A. Yangicha fikrlash va ishlash – davr talabi. T.5. – T.: O'zbekiston, 1997.
12. Karimov I.A. Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo'lida. T.6. - T.: O'zbekiston, 1998.
13. Karimov I.A. Biz o'z kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. T.7. – T.: O'zbekiston, 1999.
14. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. T.8. – T.: O'zbekiston, 2000.
15. Karimov I. A. Vatan ravnaqi uchun har birimiz mas'ulmiz. T.9. – T.: O'zbekiston, 2001.
16. Karimov I.A. Xavfsizlik va tinchlik uchun kurashmoq kerak. T.10. – T.: O'zbekiston, 2002.
17. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevoridir. - T.: Sharq, 1997.
18. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. - T.: O'zbekiston, 1997.
19. Karimov I. A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. - T.: O'zbekiston, 1998.

20. Karimov I. A. Jamiyatimiz mafkurasi xalqni xalq, millatni millat qilishga xizmat etsin. - T.: O'zbekiston, 1998.
21. Karimov I. A. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. - T.: Sharq, 1998.
22. Karimov I. A. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz. - T.: O'zbekiston, 1999.
23. Karimov I. A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. - T.: O'zbekiston, 2000.
24. Karimov I. A. Barkamol avlod orzusi. - T.: Sharq, 1999.
25. Karimov I. A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. - T.: O'zbekiston, 1999.
26. Milliy istiqloq g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. - T.: O'zbekiston, 2000 y.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Anikeeva N. P. Jamoada ruhiy muhit. - T.: O'qituvchi, 1997.
2. Andreeva G. M. Sotsialnaya psixologiya. - M.: 2000.
3. Adizova T. M. Boshqaruv muloqoti psixologiyasi. - T.: 2000.
4. Axlidinov R. Sh. Upravlenie obrazovaniem v Uzbekistane: problemi, poiski, resheniya. - T.: 1999.
5. Bepalko B. Slagaemie v pedagogicheskoy texnologii M.: Pedagogika, 1999.
6. Bodalev A. A. Myagkost i obshchenie. - M.: Nauka, 1998.
7. Vsemirnaya deklaratsiya o visshem obrazovanii dlya XXI veka: podxodi i prakticheskie meri. - Parij, 1998.
8. Visotskiy A.S. Voprosi teorii i istorii psixologii. - M.: Misl, 1996.
9. Dayana Xalpern. Psixologiya kriticheskogo mishleniya. Sankt - Peterburg, 2000.
10. Djeni Stil, Kert Meredis, Charlz Teligl. Proekt: Chtenie v pismo dlya razvitiya kriticheskogo mishleniya Posobiya 1 - 7. Bishkek, 1998.
11. Do'stmuxammedova Sh. A. O'quvchilarga o'quv faoliyatlarini boshqarish psixologiyasi. - T.: 2000.
12. Ziyamuhamedov B. Pedagogika. - T.: O'qituvchi, 2000.
13. Karimova V. M. Sotsial psixologiya. - Farg'ona.: Farg'ona davlat universiteti, 1996.
14. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya. - T.: O'qituvchi, 1996.
15. Kvinn V. Prikladnaya psixologiya. Perv. s angl. - S - Pb.: Piter Kom, 1998.
16. Leontev A.N. Problemi razvitiya psixiki. - M.: MGU, 2000.
17. Karimova V. M, Akramova F. A Psixologiya. Ma'ruzalar matni. - T.: O'qituvchi, 2001.
18. Karimova V. M. Ijtimoiy psixologiya asoslari. - T.: O'qituvchi, 1998.
19. Mayers D. Sotsialnaya psixologiya. Perv. s angl. - S - Pb.: Piter Kom, 1998.
20. Mavlonov S, To'raeva J. Pedagogika. - T.: O'qituvchi, 2001.
21. Munavvarov A. Q. Oila pedagogikasi. - T.: O'qituvchi, 1997.

22. Pedagogika. (A.Munavvarovning umumiy tahriri) - T.: O'qituvchi, 1996.
23. Pidkasistiy P. I, Fridman L M, Gartskov M. G. Psixologo - didakticheskiy spravochnik prepodavatelya visshey shkoli. - M.: 1999.
24. Podlasiy I. P. Pedagogika. Noviy kurs. - M. : 1999 .
25. Psixologiya. Uchebnik. - M. :1998.
26. Psixologiya i pedagogika /Pod red. A.A. Radugina - M. , Tsentr,1999.
27. Psixologiya i pedagogika: uchebnoe posobie. /Pod red. 28.V.M.Nikolaenko - MIFRA/ - M. :Novosibirsk, 1999.
28. Prakticheskaya psixodiagnostika. Metodika i testi. - M.: 1999.
29. Prikladnaya sotsialnaya psixologiya. - M.: 1999.
30. Psixologiya. Qisqacha izohli lug'at. - T. : 1998
31. Raven Djon - mladshiy. Pedagogicheskoe testirovanie: problemi, zablujdeniya, perspektivi. Per. s angl. - M. :1999.
32. Saidov A. Konstitutsiya va fuqarolik jamiyati. // O'zbekiston ovozi, 2002 yil 3 dekabr.
33. Safaev N.S, G'afforov B. T. Muomala sirlari. Deyl Karnegi tizimi asosida tuzilgan maslahatlar. - T.: O'qituvchi, 1997.
34. Selevko G. K. Sovremennie obrazovatelnie texnologii - M.: 1998.
35. Sotsialnaya psixologiya. Istoriya. Teoriya. Empiricheskie issledovaniya. - L.: 1999.
36. Strelyats Ya. Rol temperamenta v psixologicheskom razvitii. - M.: 2000.
37. Turg'unov Q. Psixologiya terminlarining ruscha - o'zbekcha izohli lug'ati. - T.: O'qituvchi, 1999.
38. Toshimov R, Mamatov M, G'oziev E. G'. Aqliy kamolingizni aniqlay olasizmi? - T.: 1997.
39. Teoreticheskaya i prikladnaya sotsialnaya psixologiya.Otv. red. A.I. Uledov. - M.: Misl, 1998.
40. Farberman B. L, R. G. Musina, F. A. Djumaeva. Oliy o'quv yurtlarida o'qitishning zamonaviy usullari. - T.: 2002.
41. Chaldini R. Psixologiya vliyaniya. - M.: 1999.
42. Eydmiller E.G, Yustitskiy V.V. Psixologiya i psixotera - piya semi. Perv. s angl. - Sankt - Peterburg.: Piter Kom, 1998.
43. Sharifxo'jaev M. O'zbekiston: yangi g'oyalar, yangi yutuqlar. -T.:2002.
44. Qurbonov Sh, Seytxalilov. Uzluksiz ta'limda kadrlar tayyorlashning milliy modeli. - T.: Sharq, 2000.
45. G'aybullaev N. Pedagogika. - T.: 1996.
46. G'oziev E. G, Azimov N, Usmonova E. Diqqat psixologiyasi. Universitet talabalari uchun o'quv qo'llanma. - ToshDU.: 1998.

47. G'oziev E. G', Xasanov B. Psixologiya nazariyasi. - T.: 1998.
48. G'oziev E. G'. Inson psixologiyasining rivojlanishi. - T.: 1999.
49. G'oziev E.G'. Oliy maktab psixologiyasi. - T.:O'qituvchi, 1999.
50. G'oziev E. Psixologiya. - T.: O'qituvchi, 1999.